



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

Sindarov Fazliddin Qaxramonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0003-7254-4584
fazliddinst2020@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekiston sug'urta bozorida bir qator muammolar va kamchiliklar borki, bu omillar iqtisodiyotning bu sektori samaradorligini pasaytirayotgan asosiy sabablardan biridir. Mazkur maqola sug'urta xizmatlari tizimidagi mavjud kamchiliklarni o'rganib, ular yechimi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Sug'urta xizmatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, xalqaro standartlarga mos bo'lmagan me'yoriy-huquqiy baza va boshqa bir qancha muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xorijiy tajribalarni qo'llash bo'yicha amaliy takliflar keltirilgan. Maqola sug'urta sohasini rivojlantirishga qaratilgan dolzarb muammolarni yoritgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, sug'urta xizmatlari, moliyaviy savodxonlik, sug'urta turlari.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ И НЕДОСТАТКОВ НА РЫНКЕ СТРАХОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Синдаров Фазлиддин Кахрамоневич

Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В страховом рынке Узбекистана существует ряд проблем и недостатков, которые являются одними из основных причин снижения эффективности этого сектора экономики. Данная статья посвящена изучению существующих недостатков в системе страховых услуг и разработке рекомендаций по их решению. В статье анализируются такие проблемы, как недостаточное развитие страховых услуг, нормативно-правовая база, не соответствующая международным стандартам, и другие важные аспекты. Кроме того, предложены практические меры по повышению доверия населения к страхованию, внедрению инновационных технологий и применению зарубежного опыта. Статья освещает актуальные проблемы, направленные на развитие страховой сферы.

Ключевые слова: страховой рынок, страховые услуги, финансовая грамотность, виды страхования.

ANALYSIS OF PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN UZBEKISTAN'S INSURANCE MARKET

Sindarov Fazliddin Kaxramonovich

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics

Abstract. *The insurance market of Uzbekistan faces several problems and shortcomings that are among the main reasons for the reduced efficiency of this sector of the economy. This article is aimed at studying the existing deficiencies in the insurance services system and developing recommendations for their resolution. It analyzes issues such as the underdevelopment of insurance services, a regulatory and legal framework that does not meet international standards, and several other challenges. Additionally, practical proposals are presented to increase public trust in insurance, implement innovative technologies, and adopt foreign experience. The article highlights pressing issues aimed at developing the insurance sector.*

Keywords: *insurance market, insurance services, financial literacy, types of insurance.*

Kirish.

O'zbekiston sug'urta bozori moliya bozorining muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotda moliyaviy risklarni boshqarish va diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu sektor hali to'liq rivojlanmagan bo'lib, mavjud muammolar va bir qator kamchiliklar uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sug'urta xizmatlarining xalqaro standartlarga mos kelmasligi, aholi va tadbirkorlar orasida ishonchning pastligi, moliyaviy savodxonlik darajasining yetarlicha emasligi kabi muammolar sektorni yanada rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu maqola, mavjud muammolarni tahlil qilish orqali, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xorijiy tajribalarni qo'llash va aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirishga oid takliflarni ishlab chiqishga bag'ishlangan. Maqolada, shuningdek, moliya bozorining boshqa sohalari bilan bog'liq dolzarb masalalar ham ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Sug'urta bozori va sug'urta xizmatlari moliya bozorining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy faol aholi va biznes yuritish subyektlari uchun moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilishning eng optimal instrumenti biri hisoblanadi. Shu sababli bu mavzuda juda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar taqdidotlar olib borishgan. Jumladan,

Abduraxmonovning (2021) sug'urta bo'yicha olib brogan ilmiy izlanishlarida moliyaviy risklarning sug'urtalanishi boshlang'ich bosqichda bo'lib, xorijiy tajribaga nisbatan orqada qolayotganligi qayt etib o'tilgan. Qonunchilikdagi bo'shliqlar, xususan, moliyaviy risklar bo'yicha aniq me'yor va tasniflarning yo'qligi sug'urta faoliyatini cheklaydi. Sug'urta kompaniyalarining marketing strategiyalari va mijozlarni jalb qilishdagi samaradorligi past bo'lib, raqobatbardoshlikni susaytiradi. Shuningdek, risklarni boshqarish va sug'urta fondlarini samarali boshqarish tizimlarining rivojlanmagani kuzatilmoqda. Aholi va biznes subyektlari sug'urta xizmatlarining foydasini yetarlicha anglamasligi qamrovni kengaytirishda to'sqinlik qilmoqda.

Kenjayev, Abduraimova, Abdullaeyalarning (2019) ta'kidlashicha, sug'urta kompaniyalarining marketing va mijozlarni jalb qilish strategiyalarida cheklovlar mavjud bo'lib, bu raqobatbardoshlikni pasaytiradi. Sug'urta mahsulotlarining sifati va ularning bozorga moslashuvi past darajada. Qonunchilikdagi bo'shliqlar, xususan, majburiy sug'urtaning huquqiy tartiblarini yagona me'yoriy hujjatga mujassamlashtirishga ehtiyoj mavjud. Sug'urta vositachilarining roli cheklangan va ular faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlar takomillashmagan. Sug'urta xizmatlarini onlayn rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni

joriy etish sust amalga oshirilmogda. Ushbu masalalar bozorning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Abdurasulov (2023) sug'urta kompaniyalari zaxiralarining yetarli darajada shakllantirilmashligi, marketing va SEO strategiyalarining rentabellikni oshirishda yetarli samara bermashligi, tannarx va davriy xarajatlarni optimallashtirishdagi qiyinchiliklar o'zining ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, kompaniyalar tomonidan regulyator talablariga rioya etish darajasi pastligi ham muhim muammo sifatida ko'rsatilgan. Foyda rentabelligini oshirish uchun sug'urta xizmatlari va marketing faoliyatining samaradorligi sustligi ta'kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada yozish jarayonida sug'urta bozoridagi mavjud muammolarni aniqlashda moliyaviy tahlil, statistik va taqqoslama tahlil, shuningdek, induksiya, deduksiya, sintez kabi bir qator usullardan foydalanildi. O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisoboti (2023) Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portalining ochiq ma'lumotlaridan foydalanilgan holda ushbu maqola yozildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston moliya bozorida bank sektori bilan bir qatorda sug'urta bozorida ham hal qilinishi zarur bo'lgan ko'plab muammolarni topish mumkin. 2024-yilning yakunlari bo'yicha O'zbekistonda jami 37 ta sug'urta kompaniyalari mavjud bo'lib, shundan 6 tasi hayot sug'urtasi (ILMA, 2024) faoliyati bilan shug'ullanadi. Sug'urta kompaniyalarining 2024-yilning ikkinchi yarmida jami ustav kapitali – 2.327 trln so'mga yetdi. Shuningdek, bugungi kunda sug'urta brokerlari soni bir yil oldingiga nisbatan 2 taga ko'payib, ularning soni 9 taga yetdi.

O'zbekistonda sug'urta bozorining hajmi 2024-yilda 3.68 mlrd AQSh dollariga yetishi bo'lishi prognoz qilingan (Statista, 2024). Taqqoslash uchun bu Qozog'istonda bu davrda 6,42 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda (Statista, 2024). Fitch rating agentligining O'zbekiston sug'urta bozori haqidagi hisobotida qayt etilishicha (Fitchratings.com. 2024), pandemiyadan keyingi davrda O'zbekiston sug'urta bozorida jonlanish kuzatilayotgan bo'lsa-da, sug'urta bozorining hajmi juda past va sug'urta mukofotlari hajmining YaIM ga nisbati shaklida ifodalanadigan sug'urta penetratsiyasi darajasi¹ 2022-yilda sug'urta bozorining umumiy sug'urta segmentida – 0.55%, hayot sug'urtasi segmentida bu ko'rsatgichi – 0.17% ga teng bo'lgan. Bu ko'rsatgich dunyo bo'yicha umumiy sug'urta segmentida o'rtacha – 3.9%, hayot sug'urta segmentida – 3% ga teng (www.atlas-mag.net., n.d.).

Sug'urta bozorida bank sektoridagi muammolarga qaraganda ancha jiddiyroq muammolar mavjud. Eng asosiy muammo aholi va tadbirkorlarning sug'urta kompaniyalarni va ularning ko'rsatayotgan xizmatlariga nisbatan ishonchning pastligida. Albatta, buni bir qator sabablari mavjud.

Birinchidan, aholining aksariyat qismi sug'urta xizmatlaridan faqat avtomobil uchun majburiy sug'urta xizmatlaridan foydalanadi. 2024-yil dekabr holatiga ko'ra majburiy sug'urta polisi narxi – 168 000 so'm. Baxtsiz hodisa sababli sug'urta hodisasi ro'y bergandan boshlab sug'urta qoplamasini olguncha ancha vaqt o'tadi. Sug'urta qoplamasini olish uchun jabrlanuvchi ko'rilgan zarur baholangandan keyin ko'plab buyrakratik to'siqlardan o'tib, sud qarori asosida olishi mumkin. Sug'urta qoplamasini olish jarayonining yuqori darajadagi buyrakratiyalashganligi va bu jarayonga uzoq vaqt sarflanishi aksariyat aholida sug'urta kompaniyalariga nisbatan ishonchni pasayishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, moliyaviy xizmatlardan foydalanishda, xususan, sug'urta xizmatlaridan foydalanishda aholining moliyaviy savodxonligi juda sayoz. Sug'urta nima, uni qanday turlari mavjud, sug'urta xizmatlaridan qanday foydalanish mumkin degan elementar savollarga javob

¹ Izoh: Sug'urta penetratsiyasi darajasi=Jami sug'urta mukofoti hajmi/YaIM*100%

berolmaydi. Aholining katta qismida sug'urta xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan fundamental bilim va ko'nikmalarni shakllantirmay turib sug'urta bozorini rivojlantirib bo'lmaydi.

Uchinchidan, sug'urta kompaniyalari orasidagi raqobat darajasi sust bo'lib, bu ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishiga yoki yangi, zamonaviy sug'urta mahsulotlarining paydo bo'lishiga turtki bermaydi. Aksariyat kompaniyalar faqatgina majburiy sug'urta xizmatlariga e'tibor qaratib, ixtiyoriy sug'urta mahsulotlari yoki innovatsion xizmatlarni rivojlantirishga unchalik intilmaydi. Shuningdek, raqobat muhitining pastligi sababli bozorda yangi mijozlar jalb qilish uchun ko'p harakat qilmaydi.

O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar ustidan nazorat qiladigan tashkilot Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisoblanadi. Ushbu agentlik korporativ axborot yagona portali hisoblangan openinfo.uz saytining yangilangan versiyasi new.openinfo.uz saytiga O'zbekistonda mavjud barcha AJ larning, xususan, sug'urta kompaniyalarining ma'lumotlarini ommaga oshkor qilish uchun joylashtirib borishiga mas'ul hisoblanadi. Tadqiqotimiz davomida O'zbekistonda mavjud barcha sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ma'lumotlarini yig'ish davomida ma'lum bo'ldiki, ba'zi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlari bu portalga ham AJ saytiga ham qo'yilmagan. Ma'lumotlarni o'z vaqtida berib borilmasligi ham aslida moliya bozorlarida uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Ammo shunday bo'lsada 30 ga yaqin sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati asosida butun bozor bo'yicha xulosa chiqarish mumkin. To'plangan ma'lumotlarni tahliliga asoslanib sug'urta kompaniyalarining umumiy aktivlari 2023-yil bo'yicha – 10 trln ga, umumiy daromadi – 4.8 trln va sof foydasi – 500 mlrd. so'm² atrofida bo'lgan. So'ngi yillarda sug'urta bozoridagi eng asosiy ijobiy o'zgarishlar sifatida barcha sug'urta kompaniyalari davlat tasarrufidan chiqarilib xususiy lashtirildi.

3-jadval

2020-2023-yillarda O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023
Ustav kapitali, trln so'mda	1.439	1.59	1.884	2.299
Jami sug'urta mukofoti hajmi, trln so'mda	2.2	3.7	6.2	8.1
Jami sug'urta to'lovlari hajmi, trln so'mda	0.7	1.2	2.6	2
Sug'urta shartnomalari soni, mln dona	7	8.4	8.4	9.74
Jami investitsiyalar, trln so'mda	3,38	3,74	4,75	6,15

Manba: muallif tominidan ILMA ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Yuqoridagi 3-jadvaldagi statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalarining asosiy ko'rsatkichlari o'sish dinamikasiga ega bo'lib, 4 yil ichida ba'zi ko'rsatkichlar 4 barobarga yaqin o'sish ko'rsatkichiga erishgan. Sug'urta kompaniyalarining bu davrdagi sug'urta mukofotlari hajmiga – 3.68 barobar oshgan bo'lsa, sug'urta to'lovlari hajmi esa – 2.85 barobar o'sishga erishgan. Bu ikkala ko'rsatkichni nomutanosib o'sganligini va sug'urta mukofotlari hajmining sug'urta to'lovlari hajmiga nisbatan 4.05 barobar katta ekanligi sug'urta hodisalari sonini yildan-yilga kamayib borayotganligini yoki bunday hodisa ro'y berganda sug'urta to'lovlarini undirish bilan bog'liq muammolar borligini bildiradi. Mantiqan qaraganda, O'zbekistonning aholisi va iqtisodiyoti barqaror o'sayotganligini birinchi versiya inkor etadi. Buni kompaniyalarning boshqa raqamlari bilan ham isbotlash mumkin.

Hozirgi kunda 37 ta sug'urta kompaniyasining borligi sug'urta bozoridagi katta raqobat borligini bildirsa-da, eng yirik 5 ta sug'urta kompaniyasi, "Apex insurance" AJ, "O'zbekinvest" EISK AJ, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ, "My-insurance" AJ va "Gross sug'urta kompaniyasi"

² new.openinfo.uz sayti ma'lumotlari asosida hisoblangan.


AJ lari bu bozor umumiy daromadlarining 50 %, aktivlarining 55% dan ortiq qismiga egalik qilmoqda.

Kompaniyalarning o'rtacha rentabellik ko'rsatgichlari quyidagicha;

- Aktivlar rentabelligi (ROA) – 4.91%
- Xususiy kapital rentabelligi (ROE) – 20.05%
- Sof foyda marjasi – 18.96%

Taqqoslash bu ko'rsatgich Qozog'istonda 2023-yilda aktivlar rentabelligi (ROA) – 8,0%, p Xususiy kapital rentabelligi (ROE) – 21,8% ga³ teng bo'lgan.

O'rganilayotgan davrda sug'urta kompaniyalar ichidan faqatgina "Semurg sug'urta" AJ moliya yilini zarar bilan yakunlagan va shunga mos ravishda bu kompaniyaning rentabellik ko'rsatdilar salbiy bo'lgan. "Hamkor sug'urta" AJ ning sof foyda marjasi eng yuqori bo'lib, bu – 72.61% ni tashkil qilgan. Albatta, bu bir qarashda yaxshi ko'rsatgich bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo o'ylab qaralganda katta hajmda sug'urta mukofotlarini jalb qilib, juda kichik miqdorda sug'urta to'lovlarini amalga oshirgan.




4-rasm. Sug'urta shartnomalarini soni va sug'urta turlari bo'yicha jamiga nisbatan ulushi

Manba: muallif tomonidan shakllantirildi.

2020-2023-yillar davomida sug'urta shartnomalari soni 28.13% ga o'sib, 2020-yildagi 7 mln donadan 2023-yilda 9.74 mln donaga yetdi. Bu davrda eng yuqori o'sish hayot sug'urtasiga to'g'ri keldi va 4 yil 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 61.18% ga o'sgan. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalari bu davrda mos ravishda 27.69% va 27.27% ga o'sgan. Sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar sonida majburiy sug'urta shartnomalari mutlaq ustunlikka ega. Bu avtotransport vositalarini majburiy sug'urtalash bo'yicha tuzilayotgan shartnomalar soni bilan bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan sug'urta turlaridan hayot sug'urtasi bo'yicha tuzilayotgan shartnomalar umumiy shartnomalarning 2023-yilda atigi 0.9% tashkil qilgan. Bu esa sug'urta sohasida aholini hayot sug'urtasiga qiziqmasligidan va sug'urta kompaniyalarini bu borada sezilarli natijalarga erisha olmayotganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining sug'urta mukofotlari va to'lovlarini sug'urta turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda asosiy sug'urta mukofotlarining 88% ixtiyoriy sug'urta turiga to'g'ri kelmoqda. Tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiy sug'urta turi dominant bo'lsada sug'urta mukofotlarining 8 % bu sug'urta turiga to'g'ri kelmoqda. Bu bo'yicha eng kam ulushi hayot sug'urtasiga to'g'ri kelib, bu 4 %ni tashkil qilmoqda. Sug'urta turlari bo'yicha sug'urta to'lovi va sug'urta mukofotlari summaları o'rtasida nomutanosiblik juda katta. Shuningdek, Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta sug'urta to'lovlari va sug'urta mukofotlari hajmi 2023-yilda bir yil oldingiga qaraganda mos ravishda 69.7% va 78.8% ga kamaygan. Sug'urta to'lovlari va mukofotlari hajmi faqat umumiy sug'urta hisobiga oshgan.

³ www.fitchratings.com/research/insurance




	2020	2021	2022	2023
Sug'urta to'lovlarning sug'urta mukofotiga nisbati	65.4%	43.0%	30.4%	28.4%

5-rasm. Sug'urta mukofoti va to'lovlari hajmining sug'urta turlari bo'yicha ulushi

Manba: muallif tominidan ILMA ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-730-son qununining 14-modasiga asosan sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini amalga oshirishga va qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizomi"ga (Buyruq, 2009) asosan O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlariga, xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlariga, bank sertifikatlar (depozit sertifikatlar), kredit tashkilotlariga qo'yilgan omonatlar (depozitlar), ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlarga va yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari ustav kapitalida ulushli ishtirok etish, shuningdek ipoteka qimmatli qog'ozlarini sotib olish va korporativ obligatsiyalarga investitsiya kiritish, shuningdek, investitsiyalarni qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan investitsiya faoliyatining boshqa obyektlariga ham amalga oshirishi huquqiga ega.



Rasm -6. Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2023-yil yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari", 2024.

Sug'urta kompaniyalarining 2020-2023-yillardagi investitsiya faoliyatini tahlil qilganda kompaniyalarning asosiy moliyaviy resurslarini investitsiya sifatida bank depozitlariga yo'naltirganligini ko'rishimiz mumkin va bu ko'rsatgich yildan-yilga o'sib 2020-yildagi 53.8% dan 2024-yili 65.6% ga yetgan. Qimmatli qog'ozlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi har yili pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yilda 28.3% dan 2023-yilda 22.1% ga tushib ketgan. Shuningdek, bu davrda kompaniyalarning ustav fondidagi ishtiroki ham deyarli 4 barobarga ko'payib ketgan. Ko'p jihatdan asosiy investitsiya resurslarining depozitga o'ylantirishi boshqa investitsiya instrumentlarining riski balandligi bilan bog'liq. Masalan, O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi ko'plab aksiyalarning likvidligi past va bu riskni keltirib chiqaradi. Ko'chmas mulk bozoridagi barqaror daromad sababli bu bozorga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sib bormoqda. Sug'urta kompaniyalarining yirik investitsiya resurslarini asosiy qismini depozitga yo'naltirilayotganligini ikkita sababini ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, bank depozitlarni riski past va ishonchlik darajasi yuqori

Ikkinchidan, qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya instrumentlarini likvidligi past va rentabelligi ham yuqori emasligi asosiy muammo bo'lib, bu sug'urta bozori sferasidagi muammo hisoblanmaydi.

2024-yilning birinchi choragi bo'yicha sug'urta agentlari soni yuridik va jismoniy shaxslar bilan qo'shib hisoblaganda 4411 tani tashkil qilgan. Bu bir yil oldingiga nisbatan 20.1 % ga kam demakdir. Sug'urta agentlari sug'urtalovchining vakili bo'lgan va uning nomidan ishlaydigan jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, agentlarning asosiy maqsadi sug'urta kompaniyasiga mijozlarni jalb qilishdir. Agentlarning asosiy faoliyati sug'urta kompaniyalar uchun mijozlarni qidirish, potensial mijozlarga sug'urta shartlari va sug'urtalovchining tariflari bo'yicha maslahat berish, mijoz uchun sug'urta hujjatlarini tayyorlash va sug'urta mahsuloti uchun to'lovlarni amalga oshirish bo'lib, sug'urta kompaniyalarining, umuman, sug'urta bozorlarini rivojlantirishda ularning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Lekin, O'zbekistondagi ko'p sonli aholi va tadbirkorlarni bu sondagi sug'urta agentlari qamrab ololmaydi. Ya'ni ularning soni juda kam. Aholi va tadbirkorlik subyektlarini sug'urtaga oid moliyaviy savodxonligini oshirish, pirovardida, sug'urta bozorini hajmini oshirishda ularni faoliyat ko'rsatishi juda muhim. Ammo, raqamlar bu sondagi agentlar umumiy sug'urta bozori uchun kadrlar tanqisligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi kunda atigi 9 ta sug'urta brokerlik kompaniyalar mavjud. Sug'urta brokerlari agentlardan farqli o'laroq, ular mijozlarning manfaatini himoya qiladi. Professional broker nafaqat mijozning ko'rsatmalarini bajaradi, balki uning manfaatlarini himoya qiladi va ish beruvchi uchun maqbul sharoit va imtiyozlarga erishadi. Sug'urta brokerlarini soni ham sug'urta qildirishi mumkin bo'lgan O'zbekistondagi potentsional mijozlarning qamrov darajasida emas.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish uchun mavjud muammolarni tizimli ravishda hal qilish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish muhimdir. Moliyaviy savodxonlikni oshirish, xalqaro standartlarga mos huquqiy bazani takomillashtirish va sug'urta xizmatlarini diversifikatsiya qilish ushbu sektorning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, xorijiy tajribalardan foydalanish va raqobat muhitini yaxshilash orqali yangi va zamonaviy sug'urta mahsulotlarini joriy etish lozim. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini optimallashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ularning samaradorligini oshirish mumkin. Natijada, sug'urta bozori nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi, balki aholining moliyaviy xavfsizligini oshirishda ham muhim vositaga aylanadi. Ushbu yo'nalishdagi tizimli islohotlar bozorni uzoq muddatli muvaffaqiyat sari olib boradi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Abdurasulov B. (2023) "O'zbekiston sug'urta tashkilotlarida roe, seo va rentabelik o'rtasidagi munosabatlar", Iqtisodiy taraqqoyot va tahlil, VI son, Avgust.

Abduraxmonov I. (2021) "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti", Darslik, Toshkent, "Iqtisod-moliya", 418 bet.

Buyruq (2009) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i, 16.07.2009 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 1982.

Fitchratings.com. (2024). Available at:

<https://www.fitchratings.com/research/insurance/uzbek-insurance-seeks-balanced-growth-01-03-2024>

ILMA (2024), "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil I chorak yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari".

Kenjayev I., Abduraimova M., Abdullaeyalarning N. (2019) "Sug'urta biznesi", Darslik, Toshkent. "Iqtisod-moliya" 320 bet.

Statista. (2024). Insurances - Uzbekistan | Statista Market Forecast. [online] Available at:

<https://www.statista.com/outlook/fmo/insurances/uzbekistan>

www.atlas-mag.net. (n.d.). Global insurance penetration rate. [online] Available at:

<https://www.atlas-mag.net/en/category/tags/pays/global-insurance-penetration-rate>.